

TURK MULOQOT MADANIYATIDA ‘BAŞ EĞMEK’ BIRIKMASINING QO’LLANILISHI XUSUSIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14262232>

Imamova Xolida Kamalovna

Dots. PhD. Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,

Roman-German tilleri kafedrası Toshkent/O‘zbekiston

E-mail: x.imamova@uwed.uz / imamova.h68@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-3438-5514

Annotatsiya. Ushbu maqola turk tilidagi ‘baş eğmek’ birikmasining hurmat kategoriyasida paralingvistik vositalar orqali ifoda etiladigan xususiyatlar haqida so‘z yuritadi. Hurmat ifodalashning o‘ziga xos xususiyatlari bosh orqali ifodalanadigan ta‘zim harakatlarida qay tarzda amalga oshirilish va ularning antonimli, sinonimli tomonlari yoritiladi.

Tayanch so‘z va iboralar: hurmat kategoriyasi, paralingvistika, bosh, ta‘zim, sinonim, antonim.

ОБ УПОТРЕБЛЕНИИ СЛОВСОЧЕТАНИЯ ‘BAŞ EĞMEK’ ПРИ ОБЩЕНИИ

Аннотация. Данная статья посвященно паралингвистическим особенностям проявления категория вежливости в турецком языке. В число особенности включается движение головой и т.д. Входе исследования выявления синонимичные и антонимичные случаи репрезентации отмеченных особенностей.

Опорные слова и выражения: категория вежливости, паралингвистика, голова, наклон, синоним, антоним.

ON THE USE OF THE COMBINATION ‘BAŞ EĞMEK’ IN TURKISH COMMUNICATION CULTURE

Imamova Xolida Kamalovna

PhD., Assoc.Prof., University of World Economy and Diplomacy, Department
of Romano-German language Tashkent/Uzbekistan

E-mail: x.imamova@uwed.uz / imamova.h68@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-3438-5514

Abstract. *The present article confides paralinguistic peculiarities of the category of politeness the presentation in the Turkish language like had, body bowingetc. There are synonymous and antonymous tips of this representation.*

Key words and expressions: *politeness, had, body bowingetc, paralinguistic, peculiarities, representation, synonymous, antonymous.*

Kirish

Ma'lumki, o'rganish sohasini ajratib olish nutai nazaridan tilshunoslik ikki turga ajraladi: mikrolingvistika (kichik tilshunoslik) va makrolingvistika (katta tilshunoslik) [Irisqulov M.T. 1992, 4-5 b.].

Mikrolingvistika tilning faqat ichki ya'ni fonetikasi, leksik va grammatik tuzilishini o'rgansa, makrolingvistika tilni boshqa fanlar bilan qo'shib o'rganadi. Tilning paydo bo'lishi, uning taraqqiyot qonunlari, tilning ijtimoiy mohiyatini, tafakkur bilan munosabatini, til va boshqa signal sistemalari orasidagi o'xshash va farqli tomonlarni, tilning tarqalishini qamrab olar ekan etnolingvistika, psixolingvistika, paralingvistika, sotsiolingvistika, areal lingvistikasi bilan birga biz o'rganayotgan muloqot madaniyatini ham qamrab oladi.

Muloqot jamiyat qatlamlarining a'zolari orasida til bilan birga nutqga hamrohlik qiluvchi turli vositalarni ifodalaydi. Shu jihatdan yondashib, paralingvistik vositalarni ifoda etuvchi 'baş eǵmek' birligi va uning ma'no xususiyatlarini quyidagicha tasnifladik.

Asosiy qism

Bosh inson tanasining muhim qiymatga ega bo'lgan, fikrlash, fahmlash, boshqaruv funksiyasini bajaradigan qismidir. Insonlar o'zaro munosabatda turli xil bosh harakatlari bilan *tasdiqni, inkorni, norozilikni, ma'qullashni, salomni, xayrlashuvni, uyalishni* va shular qatori *hurmatni* ham ifodalaydi. Xususan, turklarda bosh harakatlari bilan *hurmat* ifodalanishini quyidagi misollarda ko'rish mumkin.

Başla selamlamak:

– *Yeni fransızca muallımımız Feride Hanım.*

Bulunduğum yerden başımla selamladım:

– *Büyük bestekarımızı tanıdığımı çok memnun oldum efendim, dedim* [Güntekin R.N.1992, Ç., 239] 'Yangi frantsuz tili o'qituvchimiz Farida xonim. Turgan joyimdan bosh ishorasi bilan salom berdim: – Taniqli bastakorimiz bilan tanishganimdan behad mamnunman afandim, – dedim.

Ma'lumki, insonlar o'zaro munosabatda ko'p hollarda paralingvistik vositalardan foydalanmaydi. Paralingvistika so'zlovchi bilan tinglovchi orasidagi munosabatdan tashqari, yuqorida ta'kidlanganidek, til sohiblarining yashash tarzi, madaniyatiga ham bog'liq. Munosabat, hurmat ham o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. U

tinglovchi bilan so'zlovchining dunyoqarashiga, tushunchasiga bog'liq bo'ladi. Bunda psixolingvistikaning ahamiyatini ham chetda qoldirish mumkin emas. Neytral hurmat yuzasidan salomlashganda paralingvistik vositalar qo'llanmasligi mumkin. Xoh etiket nuqtai nazaridan salomlashganda, xoh etiketdan tashqari qo'shimcha munosabat bildirilganda psixolingvistik vositalar asosida hurmat darajasi orttiriladi.

Baş işareti:

*Nazik bir **baş işareti**yle uzaktan selam verdi, hafifçe eğilerek:*

– *Burhanettin bendeniz* [Güntekin R.N, 1992. Ç., 291] 'Kiborlik bilan bosh ishorasi orqali uzoqdan salom berdi, bir oz egilib: – Kamina Burxoniddin.

Yuqoridagi har ikki misolimizda baş selamı orqali hurmat bildirilsa-da, birinchi misolda lingvistik vositadagi maqtov–büyük bestekarımız paralingvistik hurmat ifodasini to'ldiribgina qolmay, yanada kuchaytiradi. Ikkinchi misolda baş işareti birligi hurmatni nozik tarzda ifoda etish bilan birga hafifçe eğilerek birligidagi mazmun bilan uyg'un ravishda hurmatni ta'kidlashga xizmat qilgan, bendeniz so'zi kamtarlik uslubi orqali hurmatga yanada yuqori darajada qo'shimcha bo'yoq bergan. So'zlovchining tinglovchiga bildiradigan munosabati, dastavval, psixolingvistik mazmunda shakllanib, paralingvistikada aks etadi. Paralingvistik vositalar lingvistik birliklar orqali ifodalanib, ular bilan birga qo'llanib, hurmat ma'nosining mazmunini boyitishga xizmat qiladi:

...Şimdi artık sizden müsaade istiyeceğim.

*Hafif bir **baş selamı**yla yürüdüm* [Güntekin R.N.1992, Ç.,108] '...Endi mumkin bo'lsa ruxsatingiz bilan ketsam. Astagina boshim bilan ta'zim ko'rsatib, yurib ketdim.

Bir qaraganda yuqoridagi har uch misolda bir xil harakat bajarilmokda. Bu harakat birligi baş selamı (işareti) bilan ifoda etilishiga qaramay, ular turli ma'nolarni bildiradi. Birinchi va ikkinchi misolimizda adresant salomlashish ma'nosida hurmat ko'rsatib, bosh egish harakatini ifodalagan bo'lsa, uchinchisida xayrlashish ma'nosida ko'rsatilgan hurmat, bosh eggan holda ta'zim bilan ketishga ruxsat so'rash mazmunini bildiradi. Demak, paralingvistik aspektidagi birliklar ifodasida ham leksik birlikning turli mazmun ifodalashga xizmat qilishi ma'lum bo'ladi. Masalan, baş selamı ham antonimik (salomlashish, xayrlashish), ham sinonimik (baş selamı, baş işareti, baş eğmek, baş kesmek), ham ommonimik (salomlashish, ta'zim ko'rsatish, ruxsat so'rash, xayrlashish) semantik munosabatlarini ifoda etadi. Ikkinchi jihati esa, lingvistik vositalarga qo'shimcha bo'yoq berib, hamrohlik vazifasini namoyish etadi va yuqori darajadagi hurmat ifodalashga xizmat qiladi. Uchinchi misolning birinchi va ikkinchi misollardan farqi unda, avvalo, hurmat ifoda etishning lingvistik jihati birlamchi, paralingvistik tomoni esa keyingi o'rindadir. **Başını eğmek:**

*Ellerini tatlı bir teslimiyetle ellerimin içine bırakarak beni dinleyen Necmünnisa, daha ziyade **başını eğdi**, çok yavaş bir sesle:*

– *Ziyanı yok Cemil Bey ... Söyleyiniz, dedi* [Güntekin R.N.1992, SY., 55]
‘Qo’llarini qo’llarimning kaftlari orasiga ohista qo’yib, meni tinglayotgan Nejmunisa, yanada ko’proq boshini egib, juda sekin bir ovozda: – Zarari yo’q Jamil bey ... Aytavering, – dedi.

Yuqoridagi baş selamı bilan başını eği lingvistik birliklari hurmat ifodalashda o’ziga xos sinonimik qatorni tashkil etadi. O’z navbatida, sinonimik qatorning har bir komponentida bo’lganidek, farqli jihatlarga ham ega. Birinchidan, baş selamı qisqa vaqt ichida amalga oshirilgan harakatni bildirsa, başını eği birligi nisbatan uzoqroq vaqt, ba’zan suhbat tugaguncha bo’lgan muddatni ifoda etadi. Ikkinchidan, turk tilidagi baş selamıda ifodalangan paralingvistik mazmunni sotsiolingvistik nuqtai nazardan jamiyatdagi munosabat va etiket jihatidan tavsiflash ma’qul bo’lsa, başını eği birligidagi paralingvistik mazmunni psixolingvistik xarakterdagi munosabat ifodalashda shaxs tushunchasi, dunyoqarashiga ko’ra izohlash mumkin. Uchinchidan, baş selamıda samimiy hurmat bo’lishi ham, bo’lmasligi ham mumkin. Ammo başını eğdida chuqur samimiy hurmat mavjud. “Salomni ifodalashga xizmat qiluvchi jest va mimikalar maqol va iboralarni yuzaga keltirmoqda... ” [Küçükbasmacı G., 2015. s.1691].

Semiotika nuqtai nazaridan bosh – tananing eng muhim, asos qismi. Shu bilan birga, boshqa tana a’zolaridan eng yuqorida turishi bilan farqlanadi. Turk tilida baş so’zi mohiyatida “insonning o’zi, butun boshli tanasi, o’zligi” semalari jamlangan. Shu muhim tana qismining egilishi kamtarlikning, boshqalarni o’zidan yuqori ko’rishning, e’zozlashning ramzi sifatida hurmat ma’nosini namoyon qiladi. Semiotikadagi mana shu ma’no tilda hurmat ma’nosini ifodalovchi quyidagi iboralarning yuzaga kelishiga asos bo’lgan: baş egmek ‘ta’zim qilish, baş kesmek ‘salom berish, baş tacı ‘qimmatli, qadrlı, hurmatli, baş üstünde tutmak ‘hurmat ko’rsatish, baş üstünde yeri olmak ‘hurmatga loyiq, başına tac etmek ‘qadrlab hurmat ko’rsatish, başta taşımak ‘hurmat qilish, qadrlash. Ushbu iboralardan yaqqol namoyon bo’lib yuzaga chiqayotgan hurmat baş ramzidan foydalanib, adresant baş egmek ‘ta’zim qilish, baş kesmek ‘salom berish orqali adresatga kamtarlik bilan hurmat ko’rsatsa, baş tacı ‘qimmatli, qadrlı, hurmatli, baş üstünde tutmak ‘hurmat ko’rsatish, baş üstünde yeri olmak ‘hurmatga loyiq, başına tac etmek ‘qadrlab hurmat ko’rsatish, başta taşımak ‘hurmat qilish, qadrlash iborolari yordamida adresatni o’zidan yuqori ko’rib, e’zozlash orqali hurmat bildiriladi. Ushbu iboralar mazmuni asosida, turk tilida bir baş ramzi, belgisi asosida adresant adresatga hurmat ko’rsatish uchun ikki xil yo’l tutishi ma’lum bo’ldi: ramz asosida kamtarlik qilib o’zini adresatdan kichik oladi, adresatni o’zidan baş ramzi asosida yuqoriga ko’taradi.

Xulosa

Misollardan kelib chiqib qayd etish mumkin bo'lgan yana bir jihat – hurmat kategoriyasi sof lingvistik hodisa, shu bilan birga paralingvistik vositalar yordamida to'liq reallashadi. Paralingvistika hurmatni aks ettirishda qo'shimcha vosita bo'lib qolmasdan, so'z orqali ifodalab bo'lmaydigan holatlarni ham namoyon etishga yordam beradi. Ko'p hollarda lingvistik vositalarni tejashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Güntekin R. N. *Çalığışu*. İstanbul: İnkılap kitapevi, 1992. - 408 s.
2. Güntekin R. N. *Sönmüş Yıldızlar*. – İstanbul: İnkılap Kitabevi, 1992. -174 s.
3. Ирискулов, М.Т. *Тилиуносликка кириши*. Тошкент: Ўқитувчи. 1992. - 256 б.
4. Küçükbasmacı G. (2015) “*Selamlaşma Sözleri Açısından Manas Destanı*”, Turkish Studies İnternational Periodikal For The Languages, Literature and History of Turkish or Turkic Volume 10/8 Spring 2015, p. 1691. DOI Number: <http://dx.doi.org/10.7827/TurkishStudies.81442>, ISSN: 1308-2140, ANKARA-TURKEY.
5. *Türkçe Sözlük*. Ankara: Türk Tarih Kurumu Basım Evi, 1988. - 504.s.